

“TASHQI SIYOSAT VA MINTAQAVIY HAMKORLIK”

Ilmiddinov Lutfullo Nizomjon o'g'li

Namangan davlat universiteti, Yuridik fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17602206>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali hozirgi kunda O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik va barqarorlik, madaniy va ilmiy aloqalar, shuningdek, faol tashqi siyosat yuritishning ijobiy tomonlari qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi siyosat, Diplomatik aloqalar, Xalqaro iqtisodiyot, Xalqaro tashkilotlar, Elchixona.

«ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА И РЕГИОНАЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО»

Аннотация. В данной статье кратко освещаются позитивные стороны современной экономической интеграции Узбекистана с зарубежными странами, безопасности и стабильности, культурных и научных связей, а также его активной внешней политики.

Ключевые слова: Внешняя политика, Дипломатические отношения, Международная экономика, Международные организации, Посольство.

“FOREIGN POLICY AND REGIONAL COOPERATION”

Annotation. This article briefly highlights the positive aspects of Uzbekistan's current economic integration with foreign countries, security and stability, cultural and scientific ties, as well as its active foreign policy.

Keywords: Foreign Policy, Diplomatic Relations, International Economics, International Organizations, Embassy.

Tashqi siyosat — biror davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarini, manfaatlarini, maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan siyosatdir. Tashqi siyosat davlatning ichki siyosati bilan bog'liq bo'lib, uning xalqaro imaydondagi mavqeini va ta'sirini belgilaydi.

Tashqi siyosatning asosiy elementlari quyidagilar:

Diplomatiya – davlatlarning o'zaro munosabatlari, muzokaralar va kelishuvlarni o'rnatish.

Harbiy strategiya – milliy xavfsizlikni ta'minlash va zarur hollarda mudofaa kuchlarini ishlatish.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – savdo, investitsiyalar, moliyaviy va iqtisodiy yordam kabi masalalar.

Xalqaro tashkilotlarga a'zolik – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarda ishtirok etish[2].

Tashqi siyosatning asosiy maqsadi davlat manfaatlarini himoya qilish, global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va diplomatik aloqalarni o'rnatishdir. Bu, shuningdek, davlatning xalqaro maydondagi imijini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Tashqi siyosatni amalga oshirishda davlatlarning ichki siyosiy, iqtisodiy va harbiy holati ham ahamiyatli bo'ladi. Har bir davlatning tashqi siyosati o'zining tarixiy, geografik, iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining 17-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi alqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir[1]. Qolaversa, O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

Respublikamiz ko'plab xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 1992-yil 2-martdan boshlab a'zo hisoblanadi. O'zbekiston BMTning barcha asosiy ixtisoslashgan idoralari (UNESCO, WHO, FAO, ILO va boshqalar) bilan faol hamkorlik qiladi. 2023–2025-yillarda BMT Inson huquqlari kengashiga a'zo bo'ldi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga 1992-yildan beri a'zo. U bilan siyosiy, xavfsizlik va saylov tizimi sohalarida hamkorlik qiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga 1991-yildan beri a'zo. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 2001-yil tashkil topgan, O'zbekiston esa uning asoschilaridan biri. Unda xavfsizlik, savdo, energetika va transport loyihalarida faol qatnashadi.

Turkiy Davlatlar Tashkilotiga 2009-yildan boshlab a'zo hisoblanadi. Bu tashkilot turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy integratsiyani rivojlantiradi. Islom Hamkorlik Tashkiloti 1996-yildan beri a'zo. Islom mamlakatlari o'rtasida birdamlik va rivojlanishga qaratilgan tashabbuslarda faol ishtirok etadi. BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot bankining ham a'zosi hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb etish sohasida ham hamkorlik olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdir[4]. Bu faollikka misol tarzda mamlakatimiz xorijiy davlatlar bilan imzolagan hujatlarni keltirishimiz mumkin. Turkmaniston bilan 2025-yil 28-yanvarda Toshkentda O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov va Turkmaniston Tashqi ishlar vaziri Reshid Meredov ikki hujjatni imzoladi — biri “2025-2026 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi”, ikkinchisi “huquqiy-shartnoma bazasini inventarizatsiya qilish va takomillashtirish protokoli”. Shuningdek, tomonlar bir-birlarining xalqaro tashkilotlardagi nomzodlarini qo'llab-quvvatlashga og'zaki eslatma almashdilar. Bu hujjatlar Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mintaqasida o'zaro hamkorlikni kengaytirish, huquqiy bazani mustahkamlash va qo'shni respublikalar bilan aloqalarni poydevorini oshirishga mo'ljallangan. Mongoliya bilan 2025-yil 25-iyunda Ulan-Bator shahrida Shavkat Mirziyoyev va Ухнаагийн Хүрэлсүх bilan yuqori darajadagi muzokaralar natijasida “kompleks hamkorlik deklaratsiyasi” imzolandi. Mazkur deklaratsiya bilan birga quyidagi hujjatlar ham imzolindi: o'simlik karantini va himoyasi bo'yicha hamkorlik; oliy ta'lim bo'yicha hamkorlik; konchilik va atrof-muhitni muhofaza qilish; jinoyatni oldini olish va nazorat qilish; sog'liqni saqlash va tibbiyot; jismoniy

tarbiya va sport. Bu, O'zbekistonga shimoliy qo'shni bilan strategik jihatdan yangi hamkorlik yo'nalishlarini ochish imkonini beradi — ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, sport kabi sohalar ham kiradi. Xitoyning Fujian viloyati delegatsiyasi bilan Toshkentda 2025-yil 23-may kuni O'zbekistonda 20 dan ortiq investitsiya va savdo bitimlari imzolandi. Mazkur bitimlar qurilish materiallari, konchilik, to'qimachilik, avtomobil komponentlari va sanoat parklarini rivojlantirish kabi sohalar bo'yicha bo'lgan. Bu bitim Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, ayniqsa investitsiya va sanoat parklari orqali mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishida muhim qadam. Portugaliya, Slovakiya va Hindiston bilan 2025-yil 27-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan uchta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilindi[3]. O'zbekiston bu davlatlardan tashqari rivojlangan boshqa davlatlar bilan ham ijobiy munosabatda.

2025-yilgi Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo sammiti 2025 -yilning 3-4-aprel Samarqand shahrida bo'lib o'tdi Bu Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi birinchi sammit bo'ldi. Sammit Markaziy Osiyoda iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlari va siyosiy repressiya kabi umumiy manfaatlarga ega bo'lgan sohalarda hamkorlikni kengaytirdi[4]. Sammit Yevropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo strategik sheriklik, siyosiy va iqtisodiy hamkorlik rejasining boshlanishi bilan yakunlandi. Evropa Ittifoqi infratuzilmani rivojlantirish, yashil energiya va mintaqaviy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan texnologiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun 13,2 milliard dollar va'da qildi. Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlarini siyosiy erkinliklar, inson huquqlari va sud adolatini yaxshilashga chaqirdi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu sammit faqat O'zbekiston uchun emas, balki barcha Markaziy Osiyo davlatlari, qolaversa, Yevropa ittifoqi davlatlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirda O'zbekiston 34 ta elchixonona va 18 ta konsullik vakolatxonasiga ega. Elchixonalar quyidagi davlatlarda faoliyat yuritadi: Avstriya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Belgiya, Buyuk Britaniya, Misr, Isroil, Hindiston, Indoneziya, Eron, Italiya, Ispaniya, Qozog'iston, Xitoy, Janubiy Koreya, Qirg'iziston, Quvayt, Malayziya, Rossiya, Tojikiston, Turkiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Shveysariya, Ukraina, Polsha, Kanada, Belarus, Singapur, BAA. Qolaversa, bu davlatlarning ham elchixonalari O'zbekiston hududida o'z faoliyatini olib bormoqda.

Iqtisodiy va diplomatik aloqalarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng jahon hamjamiyatiga faol integratsiyalashishga intildi. Bugungi kunda mamlakat 180 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati eksport-import hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. O'zbekiston 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida taxminan 59,8 mlrd AQSH dollar miqdorida tashqi savdo aylanmasiga ega bo'lgan — bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,9 % ga o'sishni anglatadi. Shu davrda eksport 26,7 mlrd dollar, import esa 33,1 mlrd dollarni tashkil etgan. Savdo aloqalari keng, 2025-yil oxirida O'zbekiston 206 davlat bilan tashqi savdo aloqalariga ega bo'lgan. Eng yirik savdo hamkorlaridan bo'lmish Xitoyning ulushi taxminan 19.1%ni, Rossiya 15,7 %ni, Qozog'iston 5,8 %ni, Turkiya 3,6 %ni tashkil etsa, Janubiy Koreya 2,2 %ni tashkil etadi[5].

Turkiya bilan iqtisodiy aloqalar alohida ravishda rivojlanmoqda: Ular “Strategik hamkorlik” darajasiga ko‘tarilgan va savdo hajmi 2016-yildagi 1,2 mlrd dollardan 2024-yilda 3,5 mlrd dollarga yetgan. Xitoy bilan savdo ayniqsa katta o‘shish ko‘rsatmoqda — 2025-yilning birinchi yarmida Xitoy bilan savdo hajmi 6,556,8 mln dollarni tashkil qilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston tashqi siyosati milliy manfaatlarni himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Mamlakat qo‘shni va boshqa davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantiradi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga intiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning tashqi siyosati xalqaro maydonda nufuzini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. www.lex.uz
2. Tashkent Law Spring. <https://tashkentlawspring.uz/>
3. Kun.uz. <https://www.kun.uz/en/news/>
4. www.wikepediya
5. Yuz.uz. <https://yuz.uz/>